Ismoilbek ta'til bo'lishiga qaramay, ayrim maktab va madrasalarga borib, o'qitish usullari bilan tanishadi. Madrasalarda arabiy ilmlar va adabiyotdan boshqa fanlar o'qitilmasligidan afsuslanadi. Madrasalardagi ta'lim tizimi haqida: *"Oliy madrasalarda diniy ilmlar yuksak saviyada o'qitiladi... O'tmish davrlarda e'tibor qozongan astronomiya, tib, handasa, kimyo va boshqa fanlar keyingi zamonlarda bu erda unutilib yuborilgan. Umidvormizki, Tehronda, Istanbulda, Misrda, Bombayda yangidan jonlangan bu tur ilmlar Buxoroyi sharifda ham tirilib qolar"*- deb yozadi. Maktab va maorif masalasida Badridin qozikalon bilan ham uchrashadi va unga –"Xo'ja sibyon" darsligini sovg'a qiladi. Qozikalon kitob bilan tanishib, amirlik maktablarining aksariyat qismida tahsil tili fors tilida ekanligini, agar darslik fors tiliga tarjima qilinsa, juda foydali ish bo'lishini ta'kidlaydi.

Ismoil Gaspirinskiyning Buxoroga tashrifidan xabar topgan Amir Abdulahadxon uni Shahrisabzga taklif qiladi va ular 1893 yilning 12 iyunida uchrashadilar. Suhbat davomida Ismoilbek jadid maktablarining ahamiyati va Rossiyadagi ta'lim tizimi haqida ma'lumot beradi. Amir Abdulahadxon uning maorif sohasidagi harakatlarini yuqori baholab, tashrifi uchun minnatdorchilik bildiradi. Ismoilbek Gaspirinskiyning Buxoroga tashrifi va Sharq mamlakatlarida maorif sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ta'siri ostida Buxoroda jadid maktablari tashkil etila boshlaydi. 1897 yilda Badridin qozikalonning ruxsati bilan Mulla Jo'raboy Ne'matulloh o'g'li Buxoro shahrida jadid maktabi ochadi. U Xo'jai sibyon darsligini fors

tiliga tarjima qilib, 13 nafar bolani o'qitishni boshlaydi. Bu haqda xabar topgan Ismoil Gaspirinskiy ushbu maktabga 10 dona sarmashq va 1000 nusxa alifbo kitobini bosmaxonasidan hadya sifatida bosib berishini aytadi. 1900 yilda ushbu maktabda imtihon o'tkazilgan va uning so'ngida savdogar Mirxon Porso o'g'li maktab va madrasalarda tadriski isloh qilish zarurligi haqida nutq so'zlagan. Oradan biroz vaqt o'tib bu maktab faoliyati to'xtab qolgan. 1907 yilda Badriddin qozikalon ruxsati bilan Nizomiddin Sobitiy Buxoroda, o'z uyida tatar tilida yangi usul maktabini ochgan. Bu maktabda dastlab 10-12 nafar tatar bolalari o'qigan bo'lib, qozonlik Abdurahmon Sa'diy o'qituvchilik qilgan.

1908 yilning bahor faslida Ismoilbek Gaspirinskiy amirlikka ikkinchi bor tashrif buyurib, Amir Abdulahadxon bilan Buxoro shahrida uchrashgan. Bu safargi uchrashuv chog'ida valiahd Sayyid Olimxon bilan ham yaqindan tanishib, uning o'qimishli, rus tilini yaxshi bilishi, dunyoviy ilm-fan va matbuotdan xabardor ekanligiga ishonch hosil qilgan. Shuningdek, jadid maktablarini tashkil etish bo'yicha tatar va buxorolik ma'rifatparvarlar bilan yig'ilish o'tkazgan. Unda mulla Nizom uyidagi maktab uchun hukumatdan alohida joy olish va unda buxorolik bolalar ham tahsil olishiga imkoniyat yaratish to'g'risida qaror qilingan va bu maktabga I. Gaspirinskiyning taklifiga ko'ra, Amir Muzaffarxon sharafiga Muzaffariya nomini berishga kelishib olingan. Ushbu masalalar yuzasidan Ismoilbek Gaspirinskiy Amir Abdulahadxonga murojaat qilganda, unga ma'qul bo'lgan va jadid maktabi ochishni qo'llab quvvatlagan. Tez orada mulla Nizom uyidagi maktab Xolid Burnashev uyiga ko'chirilgan va bir necha buxorolik bolalargina ushbu maktabga o'qishga qabul qilingan. Nizom Sobitiy maktabida darslar tatar tilida olib borilganligi sababli unda buxorolik bolalarning tahsil olishi qiyinroq kechgan. Shuning uchun 1908 yilning oktabrida Buxoro taraqqiyparvarlaridan Sadriddin Ayniy va Abdulvohid Munzimlar tomonidan aynan buxorolik bolalar uchun tojik tilida tahsil beruvchi jadid maktabi tashkil etilgan. Ushbu maktabda 20-30 Yoshli kishilar uchun kechki o'quv kurslari ham tashkil qilinib, katta Yoshli talabalarga har kuni 2 soatdan dars o'tilgan. Qisqa muddatda maktab xalq orasida shuhrat qozongan. Mulla Qamariddin boshchiligida ulamolar bu holatdan norozi bo'lib, jadidlar maktabiga qarshi fitna qo'zg'atishga kirishganlar. Vaziyat murakkablashgach, 1909 yil 26 sentabrda Ostonaqul qo'shbegi, qozikalon Baqoxo'ja va Burhoniddin raislar mirzo Abduvohidga maktabning yopilganini rasman e'lon qilganlar.

O'sha yili Buxoro jadidlaridan Abulqosim Sayfullazoda ham Buxoro shahrida jadid maktabi ochgan. 1909-1910 yillarda faoliyat yuritgan ushbu maktabda 100-150 nafar o'quvchi tahsil olgan. Abulqosim maktabining o'ziga xos jihati shu ediki, u iste'dodli o'quvchilar bilan alohida shug'ullanib, muallimlikka tayyorlar edi. Bu maktab ham tez orada qora fikrli maktab domlalarining ig'vosi bilan, muftilarning jadid xaromdir fatvosiga uchrab, yopib qo'yilgan. Ammo Abulqosim kechalari yashirin suratda xususiy uylarga bolalarni to'plab, o'qitishda davom etgan.

Mirzo Abdulaziz Somiyning "Mang'it sultonlari tarixi" asarida qayd etilishicha, "...davlatdagi parokandalik, musulmon jamoasidagi tushkunlik amir Nasrulloning taxtga chiqishidan boshlandi va razillarga rahnamolik, e'tiborli va hurmatli insonlarning kamsitilishi amir Muzaffar hukmronligida mustahkamlandi, amir Abdulahadxon davrida odat tusiga aylandi va o'zining zararli mahsulini bera boshladi"[2]. Siyosiy huquqsizlik va tashqi aloqalar cheklanishi natijasida kuchaygan biqlik sharoitida mamlakatda nafaqat ijtimoiy sohada, balki madaniy hayotda ham turg'unlik, davr talablaridan ortda qolish tendensiyalari namoyon bo'la boshlagan edi. Xususan, ta'lim tizimida bu holat yaqqol ko'zga tashlanar edi. Mamlakatda

an'anaviy ta'lim tizimi amalda bo'lib, Buxoro amirligida va xususan, Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan boshlang'ich maktablarda ta'lim olgan, so'ngra madrasalarda tahsil olib dunyoni lol qoldirgan buyuk zotlar Abu nasr Farobiy, ibn Sino, Beruniy, Mahmud Xorazmiy, Imom Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Imom Termiziy, Imom Marg'inoniy, kabi ko'plab yirik olim-mutaffakkirlarni ilgari etkazib bergan ilm maskanlari bu davrda ancha eskirgan, davr talablaridan ortda qolgan edi. XX asr boshlarida ham Buxoro Markaziy Osiyo, Kavkaz orti hozirgi Tatariston va Boshqirdiston hududlari uchun islom dinning markazlaridan biri sifatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu Turkiston general -gubernatorining 1899 - yil yakuni bo'yicha podshoga yozgan xatida ham tan olingan. Xat orqali Rossiyada 14 million atrofida musulmonlar yashayotganligi qadimdan Buxoroda musulmonlar dunyosida islom ma'rifati markazlaridan biri sifatida tan olib kelinayotganligi va hozirda ham o'zining bu boradagi ahamiyatini yo'qotmaganligi to'g'risida xabar berilgan[3].

Boshlang'ich an'anaviy maktab musulmon bolalari uchun umumiy ma'lumot beradigan xat-savod chiqarish maskanlari bo'lib, arab imlosida savod olish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish[4], hisoblash qoida va ko'nikmalarini hosil qilish, tabiat va jamiyat, atrof muhit. Islom dini haqida bilim va tushunchalar berish, axloq-odob me'yorlariga amal qilishni o'rgatishdan iborat edi.

Buxorodagi birinchi an'anaviy maktab 714 yili Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoro arkida, zardushtiylar ehromi o'rnida bunyod etilgan [5]. "Maktab" so'zi arabcha "kataba" – yozmoq fe'lidan yasalgan bo'lib, yozishga o'rgatiladigan joy[6] deyilsa, boshqalarida "maktab" termini mirzalar maktabi ma'nosini bildirgan[7]. 1896-yilda Sank-Peterburgda nashr qilingan ensiklopediyada: "maktab – musulmonlarning masjidlar qoshidagi xat-savod chiqarish va diniy udumlarni o'zlashtirish dargohi"[4] deya ta'rif berilgan. Bunday an'anaviy ta'lim tizimi Markaziy Osiyo erlari Arab xalifaligi tomonidan bosib olinganidan keyin (VIII asrda) zardushtiylarning "Dabiriston"lari o'rnida shakllangani ma'lum.

Markaziy Osiyoda an'anaviy ta'lim ikki bosqich: qo'yi boshlang'ich maktab va yuqori-madrasa bosqichidan iborat edi[9]. Ushbu tizim maktablari davlat tomonidan to'liq mablag' bilan ta'minlanmagan,[9] ular doimiy ravishda xususiy shaxslar mablag'i va vaqf mulklari hisobiga yashab kelgan[11].

Markaziy Osiyoning barcha shahar qishloq va ovullarida maktabxonalar mavjud bo'lgan[9]. Maktablar ko'pincha bir sinf xonasidan iborat bo'lganligi uchun ham ularni maktabxona deb, atashgan. Musulmon qoidalaridan kelib chiqqan holda o'g'il va qiz bolalar alohida – alohida maktabxonalarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktabxonalarining aksariyati masjidlar[9], madrasalar, qorixonalar qoshida va xususiy maktabdorlar xonalarida, qiz bolalar maktabxonalari otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularnin uylarida tashkil etilgan. Maktablarda o'g'il bolalarni o'qitgan kishi "domla, ustod, ustoz, muallim", deb atalgan. Qizlarni o'qitgan ayollarni esa "otinoyi", yoki "otinbibi" (Toshentda) "bibixalifa" yoki "bibiotin" (Buxoroda), "eltibibi" (Xorazmda) deb atashgan[9]. Shuni e'tiborga olish lozimki, hozirgi Qoraqalpog'iston hududidagi maktabxonalarda o'sha davrda ham o'g'il va qiz bolalar birgalikda bir muallim tomonidan o'qitilavergan[8].

Ayrim an'anaviy maktablarda dars berish bilan shug'ullanuvchi domlaning ish haqi vaqfnomada belgilangan mablag'dan to'lab borilishi ko'pgina vaqfnomalarda uqtirilgan[9]. Bunday ma'lumotlarni Raufboy o'g'li Ma'rufboy Mirmansurning qizi Nozikoy, O'zbek o'g'li Mirzo G'ulom[8] vaqfnomalaridan bilib olishimiz mumkin. Masalan: Raufboy o'g'li Ma'rufboy

vaqfnomasida: “Vaqf mulkidan hosil bo‘lgan pulni musulmon farzandlariga diniy ta‘lim beradigan hamda har juma ertalab va kechqurun “Mulk”, “Taborak” surasini o‘qib, o‘shandan hosil bo‘ladigan savobni vaqf egasiga va uning ota-onasiga, o‘tgan barcha olim-ulamolarga bag‘ishlagan kishi”ga berilishi yozib qo‘yilgan. Yana bir vaqfnomada 1338 hijriy yilda Shamsuddin valadi Mirg‘iyos Mirzog‘ulomning Mullo Shodiy guvohligida vaqf vakolatini olgani qo‘yidagicha yozilgan: “Hovli vaqf qilinganligi va shunga bizdan keyin tirik qolgan kishi ushbu vaqflarga valiy (egalik) qilib maktabdagi musulmon bolalariga hovlini ijaraga bergan pulining bir qismini berishlarini va ular har juma kuni “Yosin” surasini o‘qib vaqf va Payg‘ambarimiz sav ruhlariga bag‘ishlanishini shart qilgan”. Bundan tashqari muallimga nisbatan qo‘yidagicha shart qo‘yilgan: “O‘qituvchi maktabni uzrsiz tark etmasligi kerak”. Maktablar ko‘p hollarda ayrim badavlat shaxslarning xayr ehsonlariga evaziga, ba‘zan esa masjidlarga tushgan daromad evaziga qurilgan. Masalan, Mirmansurning qizi Nozikoy etti xonali uy va boloxonadan iborat bo‘lgan hovlisini maktab o‘quvchilari foydasiga diniy ta‘lim olishlariga yordam sifatida vaqf qildirgan. Vaqfnomalarda yozilishicha, maktabxonalar yog‘och, xom va pishiq g‘ishtdan bino qilingan. Maktabxona binosi odatda bir xonadan iborat bo‘lib bolalar bo‘yra yoki gilam (to‘shamcha, sholcha) ustida o‘tirishgan. Maktabning xonalariga kichik, tor bo‘lib yorug‘lik tushmaydigan qorong‘u, o‘quvchilar o‘tiradigan joy esa nam va zax bo‘lgan. O‘g‘il bolalar maktabxonalarida masjid qavmi tomonidan taklif etilgan masjid imomi, muazzini yoki madrasani tugatgan kishi muallimlik qilgan. Buxoro amirligidagi maktabxonalar faoliyatini Abdurauf Fitrat shunday ta‘riflaydi: “Maktab shunday joydirki bir muallimi bor uni maktabdor deyilar, bollar u erda etti yildan to o‘n yilgacha zaruriy xat svodlarini chiqargunga qadar qoladilar, undan keyin xohishlariga qarab, madrasaga borib dars o‘qiy boshlaydilar”.

Sadridin Ayniyning yozishicha, Buxorodagi maktabxonaning ko‘rinishi qo‘yidagicha bo‘lgan” Maktab torgina bir xonadan (hujradan) iborat bo‘lib uning ikki eshigi bor, buning biri bir tavaqali va eshik ko‘pincha yopiq turar edi. Ikkinchi eshigi daricha bo‘lib uch gaz bo‘yi bir yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldida domla (maktabdor)ning o‘tiradigan joyi bor. Darchalarga esa parda qilingan (derazasi qog‘oz bilan qoplangan)” va qog‘ozga qor- yomg‘irdan saqlash uchun zig‘ir moyi surtilgan. Maktabning derazasidan darsxonaga hech bir yorug‘lik kirmas edi. Hujraning shipi tagidan devorning shippa yaqinlashgan joyida ikki tomondan ham bir-biriga ro‘parama-ro‘para qilib ochilgan ikki tuynukcha bo‘lsa ham bulardan kiradigan yorug‘lik pastga tushmasdan hujraning devorlarida qolar edi. Bu hujraning kengligi 16 gaz murabba (kvadrat) edi, uning ichida bir-birining ustida o‘tkazilib to‘rtta sinch tortilgan va bu bilan hujra to‘qqiz bo‘lakka bo‘lingan, go‘yo maktabxonaning ichida to‘qqiz oxur paydo bo‘lgan edi. Eshik oldidagi oxirchada bolalarning kavushlari turar edi, darcha oldidagi oxurchada bo‘lsa domla va qolgan etti oxurchada esa bollar o‘tirar edi”[13].

XIX asrning o‘rtalarida Buxoroda bo‘lgan N.Xanikovning qayd etishicha, boshlang‘ich maktablar yoki maktabxonalar Buxoro shahrida va boshqa shaharlarda, shuningdek, qishloqlarda juda ko‘p edi.

Arxiv ma‘lumotlariga tayanib, Buxoro shahrining har bir ko‘chasida o‘zining maktabxonasi bo‘lgan. Maktabxonalar asosan musulmonlarning xayr-ehsonlari yoki amirning buyrug‘iga muvofiq ko‘chada yashovchilarning umumiy mablag‘i evaziga ham tashkil etilgan[14]. Shariatga ko‘ra ilm o‘rganish uchun murojaat qilgan kishiga rad javobi berish og‘ir gunoh hisoblangan, o‘qishga kelgan har bir bolaning qaysi ijtimoiy toifadan bo‘lishi va o‘qish uchun qancha haq to‘lashidan qat‘iy nazar, o‘qituvchilar zimmasiga ularni har qanday e‘tirozsiz

o'qitish vazifasi yuklatilgan. Chunki har bir musulmonning bilim olishi ham qarz, ham farz bo'lganligi hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan edi[15].

Abdurauf Fitratning asarlarida oila ma'naviyati, bola tarbiyasi va uning kamoloti masalalari katta o'rin egallaydi. Uning "Rahbari najot" asari ham ta'lim-tarbiya vazifalaridan biri bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalash hayotiy vazifalardan biri deb, ta'kidlaydi.

Olimning fikricha, dunyo kurashning umumiy maydoniga o'xshaydi va bu maydonning paxlavonlari insonlardir. Har bir kishi barkamollik yoshiga etgach, u o'z saodati tashvishi uchun shu maydonda kurashmasdan iloji yo'qdir. Bu kurashda g'olib chiqish uchun 3 xil o'lchov quroliga ega bo'lishi kerak:

1. Salomatlik;
2. Sog'lom fikr (nuqsonsiz fikr, ya'ni yuqori iste'dod);
3. Axloqi sano (oliy darajali axloq, ya'ni axloqi poklik).

Tarbiyaning bu uchta jihatini olim o'z asarida alohida sarlavhalar orqali yoritib beradi. Fitrat "Har bir kishi shu quroldan birisiz maydonga kirsa, albatta mag'lub bo'lishi tabiiydir", deb aytib shu bilan uch tarbiyani doimo qo'shib olib borish kerakligini, agar bu tarbiyalarning birortasi kam bo'lsa, etuk qobil a'zosiga aylanishi uchun g'amxo'rlik qiling" deb ta'kidlaydi. Olim bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerakligini, chunki davlatning kelajagi mana shu yoshlar qo'lida bo'lishini ta'kidlab o'tadi.

Fitrat jismoniy tarbiyaga kishining salomat va baquvvat bo'lib tarbiyalanishiga alohida ahamiyat beradi. "Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta e'tibor berilgan. Insonning butun a'zosi salomat va quvvatga ega bo'lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a'zolariga biriga ziyon tegsa, u kishi ishdan qo'lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi. Bizning farzandlarimiz ilm olish bilan birga, ularning badan tarbiyasiga ahamiyat berishi lozimdir". Olim farzand tug'ilmasidan avval ona qornidaligidayoq tarbiyani boshlashni uqtiradi. Shu bilan birga bolalarning zarurligini ta'kidlaydi. Fitrat o'quvchi shaxsini hurmat qilishi zarurligini, unga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, qilgan gunohlarini o'ziga to'g'ri, yaxshi so'z bilan tushuntirish kerakligini, shu bilan birga u (o'quvchi) ham o'qituvchini hurmat qilishini ta'kidlaydi. "Agar bolalarga ularning kamchilik va qilgan gunohlarini yaxshi so'z bilan tushuntirsak, ularni yaxshi odatlarga yo'naltirsak, sizga nisbatan ularning hurmati oshadi, qabih ishlarni qilishdan uzoqlashadi va haqiqiy hurmatli inson bo'lib etishadi", deb alohida ta'kidlaydi. Fitrat inson kamolotga erishish uchun intilishi, harakat qilishi lozimligi, doimo o'z oldiga maqsadlar qo'yishi va unga etishishi uchun kurashish kerakligini, hech bir baxt yoki boylik ham inson intilmasa o'z - o'zidan kelmasligini aytib o'tadi.

Fitrat kishining har tomonlama barkamol inson bo'lib etishishida axloqiy tarbiyaning o'rnini amalga oshirish uchun avvalo bolalarni jismoniy va fikriy tarbiyaga da'vat qiling, keyin axloqiy quvvatlarni muhokama orqali tushuntiring, ularni yaxshi ishlarga odat qildiring, yomon ishlardan nafratlantiring" deydi. Olim axloqiy tarbiyani bolalar eng avvalo o'zi yashayotgan atrof-muhit va ko'chadagi bolalardan olishlarini ta'kidlab o'tdi. Axloqiy tarbiyaning eng asosiy sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi do'stlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar deb uqtiradi. Bola birinchi tarbiyani o'zining onasidan oladi. Shuning uchun onalarni o'zlari ham har tomonlama tarbiyalangan bo'lishlari kerak deb hisoblaydi.

Mudarris usuli jadid maktabining, eski maktab va madrasadek, uzoq cho‘zilmasligini eshitganida ham o‘z bilganidan qolmay, “sayrashi” da davom etadi: “Farangi birodar, bo‘lmaydi, aslo bo‘lmaydi. Siz aytganday oson bulg‘an tahsil usulini qabul qilganimizda ham yana bo‘lmaydiki, qizlarni ilm tahsili uchun ko‘chaga chiqarib yuborsak”. Bahsning davomida ma‘lum bo‘lishicha, erkaklar axloqining buzuvchi bo‘lishiga, xotin-qizlarning umumiy ta‘lim tizimidan ma‘lum darajada chetda ushlab turilishi bois ham eski ta‘lim usullari-yu, bu usullarning suyanchi bo‘lgan ulamolar ekan. Shunday qilib, Fitrat Farangi bilan Mudarrisning bahsi orqali o‘z davrining ichki ziddiyatlarini, jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchlar o‘rtasidagi kurashni, o‘zbek xalqining hanuzga qadar feodal tuzum sharoitida, jaholat og‘ushida yashayotganligi sabablarini ochib tashlaydi. Farangi Mudarrisning usuli jadida maktabiga bo‘lgan barcha, e‘tirozlarini o‘z dalillari bilan bartaraf etar ekan, bunday maktablarning nafaqat Istanbul, Bog‘dod, Nog‘oyiston va Kavkazda, balki Madinai Munavvarada – islom dinining markazida ham ochilgani haqida ma‘lumot beradi va bu maktablar “avvalgidan olimroq, mutaddayinroq (dinga berilgan shaxs, mo‘min) va vatanparvarroq” shogirdlarni etishtirib chiqarayotganini aytadi. Chamasi, xuddi shu o‘rinda Fitrat “vatanparvar” so‘zini biz tushungan ma‘noda ilk bor qo‘llaydi. Fitrat talqinidagi usuli jadida maktabining eski maktabdan farqi shundaki, “bolani olti yoshligidan maktabga yuboradilar, u o‘n to‘qqiz yoshida olim, mutaddayin, vatanparvar, dindo‘st, millatparast, siddiq, odil, tamom islomiy amrlarga mute, butun insoniy shartlarga mushtamal bir shaxs bo‘ladi. Demak maktabi qadim va madrasalardagi usuli qadim bilan birga o‘ttiz yil, tahsili jadida esa o‘n uch yildir”. Tahsilning jadidlar ishlab chiqqan bu usuli xotin-qizlarning ham to‘laqonli ilm olishlariga imkon tug‘diradi. Binobarin, “usuli jadidaga ko‘ra, osonlik bilan ayollar ham, erkaklar ham olim bo‘ladilar”. “Tahsili jadidada, deydi Fitrat o‘z qahramoni tilidan, qizni olti yoshligida maktabga beradilar, agar xohlasalar, o‘n sakkiz, aksariyat o‘n to‘rt yil o‘qitib, tafsirxon va hadisxon olima qilib kuyovga beradilar”. Fitrat xotin-qizlarning erkaklar bilan baravar ilmdan bahramand bo‘lmasligi jamiyat va xalq taqdiriga salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelgani va hozir ham ko‘rsatayotganini alohida ta‘kidlaydi. Xuddi shu masala yozuvchining ijtimoiy va huquqiy qarashlarida markaziy o‘rinlardan biriga chiqadi. Fikrimizcha, ushbu muammoning ildizlarini ijtimoiy voqelikning o‘zidan qidirish kerak. Ayol kishining jamiyatda, uni boshqarish va oilada tutgan o‘rni xususida gap ketar ekan, yuridik fanlari doktori Fozil Otaxo‘jaevning bu boradagi fikrini keltirish o‘rinli bo‘ladi deb o‘ylaymiz: “Jamiyatda mavjud bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarning mehnat taqsimotiga ta‘siri nikoh-oila munosabatlarida ham namoyon bo‘ladi. Oilada erkakning bosh bo‘lishi boshqa oila a‘zolarining huquqiy maqomiga tegishli asosda ta‘sir etadi. Erkakning oiladagi hukmronligi iqtisodiy hukmronlik oqibatidir. Keltirilgan fikrlar jamiyatning ayol kishiga – so‘zi va taqdiriga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatib turibdi. Endi Fitratning asari munosabati bilan boshlagan fikrimizni davom ettirsak. Farangi jadid maktabini ochishni taqozo etayotgan masalalarni birma-bir qayd etib, Mudarrisga deydi: “Birinchi, Sizlarning maktab va madrasangiz tahsil usuli g‘oyat uzoqdir, shu sababdan bechora ayollar ular uchun ham farzi ayn bulg‘an ilm va irfon sharafini qo‘lga kiritishdan mahrum qolmoqdalar. Ikkinchi, ular ilmsiz qolmoqdalar, har (bir) ilmsiz tarbiyasiz bo‘lg‘ani kabi, ular ham tarbiyasiz bo‘lib qoladilar. Ma‘lumdurki, kim tarbiyasizning qo‘lida katta bo‘lsa, u tarbiyasiz o‘sadi. Binobarin, Siz hammangiz tarbiyasiz qolmoqdasiz, chunonchi, qolg‘ansiz ham...” farangi bu so‘zlari bilan Mudarrisni ham jamiyatning tarbiya ko‘rmagan a‘zosi, deb tushunadi va bu fikrni uning yuziga dangal aytadi. Mudarrisni bunday atashning boisi shundaki, uning onasi ilmsiz bo‘lgan, binobarin, o‘z farzandlarini, chunonchi, Mudarrisni

ham tarbiyasiz bo'lib o'sdi. Fitrat tarbiya deganda o'qimishli odamni nazarda tutadi. Tarbiyaning asosiy unsurlaridan biri, uning fikricha, ilm. Muallif talqinida, ota-ona tarbiyasi ilm bilan qo'shilgan bo'lishi, aniqrog'i, farzand maktab ko'rgan, ma'lumotli, jaholatdan yiroq ota-ona tomonidan tarbiyalanishi lozim. Agar shu Mudarrisning o'zini oladigan bo'lsak, u va uning o'ziga o'xshash, fikriy darajasi tuban xotini farzandlarini qanday tarbiya qilishlari mumkin? Agar jamiyat shu Mudarrisga o'xshash kishilardangina iborat bo'lsa, bu jamiyatning tanazzulga yuz tutishi, jaholat botqog'iga botishi shubhasizdir.

**Xulosa va tavsiyalar.** Xulosa qilib aytganda, Fitrat asarlarida oila va yoshlar kamoloti masalalariga alohida e'tibor bergan bo'lib, u ma'naviy merosni o'rganish va amalda qo'llash hozirgi kunda yosh avlodning tarbiyasi va uning etuk inson bo'lib kamol topishida muhim ahamiyatlidir.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Исмоилбек Ғаспарали. Туркистон саёҳатлари... – Б. 93
2. Мирзо Абдулазим Сами. Тарихи салатин-и мангитийа (История мангитских государей). Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.Епифановой. – М.: Восточная литература, 1962.- С. 116.
3. ЎзР МДА, 1-фонд, 27-рўйхат, 276-иш, 14- варақ.
4. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333-иш, 7- варақ.
5. Солижонова Г.Ф.Туркистонда ўқитиш -маърифатчилик ўчоқлари уларнинг ижтимоий аҳамияти ( XIX аср охири- XX аср бошлари). Тарих фан.ном.дисс. ...- Тошкент, 1998.- Б. 31.
6. Долимов У.Эски мактаб// Тафаккур. -Тошкент, 2010.-№1, - б 66-73
7. Остроумов Н.П. Исламоведение. Введение в курс исламоведения.- Ташкент, 1914.- С. 94-96.
8. ЎзР МДА, 1010-фонд, 1-рўйхат, 66-иш, 23 - варақ.
9. Наливкин В. Школа у туземцев Средней Азии // Туркестанские ведомости. 1898.- 8 августа.
10. Сафарова Р., Шермаматова Л. Мактаб // Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, V – жилд.- Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2003.- б.410.
11. ЎзР МДА, 323-фонд, 1-рўйхат, 1116-иш, 1 - варақ.
12. Фитрат А. Мунозара // Шарқ юлдузи. - Тошкент, 1997 - №1.- б.121.
13. Айний С. Эски мактаб// Асарлар. VIII томлик. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. IV – том. Б-139-140.
14. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб. 1843. – С.210.
15. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Таворихи муттақадимин ва мутаахирин. / Форс-тожик тилидан Н.Йўлдошев таржимаси. – Бухоро, 2003. – Б.51.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).